



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

**ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR
INTEGRATSIYASI**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN TO'PLAMI
2023-yil 24-25 noyabr**

Buxoro – 2023

- Bo'lajak muhandislar psixologik salomatligini kasbiy faoliyat doirasida tadqiq etilishi
- 235 **Jalolova Mohigul Odiljon qizi**
Harbiylar oilasida rollar taqsimoti to'g'risidagi ijtimoiy-psixologik tasavvurlarning o'ziga xosligi
- 237 **Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatullo o'g'li**
Kompetentlik va kompetensiyalar shakllanishining uzluksizlik xususiyati
- 239 **Kudratov Akmaljon Ibodillayevich,**
Inson ehtiyojlarining iyerarxik tamoyillari va uni o'zgartirish prinsiplari
- 242 **Madrimova Feruza Bahram qizi**
Yoshlarda musiqiy qobiliyatlar namoyon etilishining psixologik imkoniyatlari
- 246 **Mirashirova Nargiza Anvarovna,**
Jahon psixologiyasida ijtimoiy psixologik portret tuzish muammosi
- 250 **Mustafayev Bexro'z Baxodir o'g'li**
Bo'lajak ichki ishlar xodimlarining kasbiy faoliyatiga moslashuvining psixologik omillari
- 252 **Nabiyev Muhrodbek Bobirovich**
Xojagon-naqshbandiya ta'limoti rashhalarining shaxs kamolotidagi o'rni
- 255 **Niyozova Zaria Otabek qizi, Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li**
Psixologiyada manipulatsion ta'sirlardan himoya qilishni o'rganish
- 258 **Olimov Latif Yarashovich**
Sud-psixologik ekspertizalarni tashkil qilish va uni o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslari
- 263 **Qodirova Dilnoza Murtajoyevna**
Bo'lajak psixologlarning matematik kompetentligini oshirishning psixologik xususiyatlari
- 266 **Rahmatova Nasiba Sobirovna**
Iroda tashqi ta'sirlarni yengishning psixologik mexanizmi
- 269 **Saidov Jasurbek Jahonovich**
Boshqaruv va liderlik mahorati
- 271 **Saitova Nozima**
O'smirlarda axborot oqimiga tobelikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar
- 273 **Sayfulloeva Aziza Gulomjonovna**
O'smirlarda psixologik muhofaza muammosi haqida mutaxassislarining adabiyotlaridagi fikrlari
- 276 **Sobirova Madinabonu Jamshid qizi**
Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 280 **Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li**
Talabalarda shaxs tushunchasini shakllantirish
- 282 **Tosheva Mohinur Yusupovna**
O'smirlarda (11-15 yosh) stressga barqarorlikni taminlashning psixologik omillari
- 286 **Turopova Ma'mura Safar qizi**
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy tayyorgarlik rivojlantirishning psixologik mohiyati
- 289 **Umarova Zarnigor Raxmatillo qizi**
O'smirlarda oilaviy nizolar haqida ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish
- 292 **Umarova Zarnigor Raxmatillo qizi**
O'smirlarda oilaviy nizolar haqida ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish
- 294 **Yaxyoyeva Gulhayo Murot qizi**
O'smir o'quvchilarda kasbiy mas'uliyat hissini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari
- 296 **Yulchiyeva Z.N**
Zamonaviy rahbar shaxsining kompetentligi va unga qo'yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar
- 298 **Aminova Gulnoza Nasritdinovna**
MTT tarbiyachilari kommunikativ kompetentligining ilmiy-nazariy asoslari
- 301 **Kulatova S.Y**

3.5. Jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha sudlov ishini yuritayotgan sudning yoki tergovning alohida vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha ekspert mulohaza va xulosalarga (guvohlar yoki boshqalar ko'rsatmalarining ishonchli-ishonchli emasligi, haqiqiy yoki yolg'onligi va h.k.) yo'l qo'ymasligi zarur.

Qayta ekspertiza tayinlangan holda, uning xulosasida oldingi ekspertiza xulosalari bilan farq bo'lsa, ushbu ekspertizalar xulosalarining tahlilini o'tkazish kerak, uning tarkibida differensial diagnostika elementlari bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda xulosada ish uchun ahamiyat kasb etuvchi hamda ekspert tashabbusi bilan belgilangan vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Sud-psixologik ekspertizalarning bitilgan talab asosida o'tkazilishi ostida tegishli tartibda ishga odilona baho berishni ta'minlash yotadi.

Adabiyotlar.

1. Golniz G., Schulz-Wulf G. Rhythmisches psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004. -112 p.
2. Glassman A.H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'g'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

BO'LAJAK PSIXOLOGLARNING MATEMATIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya. Bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatishi, buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e'lon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollari oshib berishga xizmat qilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentlik, kvalimetrik, sompeto, klaster, anglanmagan kompetentsizlik, anglanilgan kompetentsizlik, professionalizm.

Аннотация. Приводятся данные о том, что экспериментальное исследование

важных на сегодняшний день факторов коммуникативной компетентности неизбежно, а для этого, прежде всего, необходимы исследования пропорциональных и корреляционных показателей между типами личности и особенностями личности у практикующих психологов. Также было высказано мнение, что каждый исследованный и опубликованный в научной прессе показатель служил для того, чтобы превзойти Перспективы науки социальной психологии.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, квалиметрическая, сомпто, кластерная, непонимаемая некомпетентность, осознанная некомпетентность, профессионализм.

Annotation. Information is provided that experimental research of communicative competency factors that are important today shows inevitability, for which, above all, a study of proportionality and correlational indicators between personality types and personality traits in practicing psychologists is required. It has also been suggested that each indicator researched and published in the scientific press has served to transcend the prospects of the science of Social Psychology.

Keywords: professional competence, qualimetric, sompeto, cluster, non-perceived competence, perceived competence, professionalism

Zamonaviy psixologiya fanida amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentlik kompetentligi muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, ulardagi kommunikativ kompetentlik kompetentlik metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kommunikativ kompetentlik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

V.I.Baydenko ta'kidlaganidek, so'ngi paytlarda "kompetentlik" atamasi o'qitish sifatining integrativ xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi va ta'lim jarayoni kategoriyasining natijasi vazifasini bajaradi. U G'arb ta'lim (pedagogik) va kvalimetrik ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarda qo'llaniladi. Kompetensiya maqsadlarni belgilashning yangi turi ta'lim tizimlarini loyihalashdir. Bu mohiyatan, bozor qiymatiga e'tibor qaratadigan bitiruvchilarning ijtimoiy tayyorgarligini tashqi baholashga baholashning faqat (yoki asosan) akademik normalaridan o'tishni belgilaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta'riflashga yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so'zining ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, «sompeto» «erishayapman, munosibman» degan ma'nolarni anglatadi hamda malum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» atamasi faoliyatda mujassamlangan psixologning kompetentligi, biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masalada shaxsning amaliy layoqatliligi hamda kommunikativ kompetentlik qobiliyatning tizimli rivojlanganlik darajasini anglatadi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, **kompetensiya** – samarali ish jarayonining asosida yotgan insonlarning o'zgaruvchan kayfiyat va o'zini tutish holatining o'lchanishidir. Shunday qilib, bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog ish jarayonining samarasi, uning samarali xulq ko'rsatkichidan kelib chiqadi.

Misol uchun, «samarali qaror qabul qilish» kompetensiyasi quyidagi xulq turlariga **klaster** shaklida bo'linishi mumkin:

- a) zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash;
- b) mavjud alternativ imkoniyatlarni baholash;
- v) yechimni ishlab shiqish;
- g) mavjud ma'lumotlardan mantiqiy xulosalarning kelib chiqishi va hokazo

Shunday qilib, **kompetensiya** – bu baholanishi mumkin bo'lgan, kuzatilayotgan xatti-xarakatning klasteridir. Buni biz bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogning qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyalarining namoyon bo'lishi misolida ko'rishimiz mumkin.

Mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozireva o'z ilmiy tadqiqotlarida kommunikativ kompetentlik yuksalish bosqichlari va kommunikativ kompetentlik kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o'rgangan. Uning talqinicha, kommunikativ kompetentlik yetuklikning 3 ta bosqichi bo'lib, ularning har biri «*anglanmagan kompetentsizlik → anglanilgan kompetentsizlik → anglangan kompetentlik*» ko'rinishidagi kommunikativ kompetentlik kompetentlikni namoyon etadi.

“Kompetentlik” tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo'llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o'zini-o'zi anglashi, o'z-o'zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kommunikativ kompetentlik faoliyati xususiyatlaridan ko'ra ko'proq bog'liqligini bildiradi. Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariyalarda “kompetentlik” tushunchasi aniq bir kasbga xos sifatlar, har bir shaxs erishishi lozim bo'lgan xususiyatlar deb qaraladi.

I.I.Bondarenko ushbu soha mutaxassislari matematik kompetentligi tarkibini, jumladan, umumiy madaniy, kognitiv, motivatsion, amaliy, pragmatik komponentlarini aniqladi. Sohada faoliyat olib borayotgan matematik kompetentligini rivojlantirishda amaliyotga yo'naltirilgan quyidagi o'qitish usullarini aniqladi:

- Mantiqiy fikrlash operatsiyalarini faoliyatning yuqori darajasidagi vaziyatlarda foydalanish;

- faoliyatning sermahsulligiga matematik talqin orqali erishish;

- ijtimoiy muammollarni o'rganishda matematik modellashirish usullaridan foydalanish;

Amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligini rivojlanishida muloqot usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o'rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kommunikativ kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi. O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatdi. Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentlik va uning shaxs faoliyatidagi o'rini o'rganish muammosining mavjudligiga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu muammoni har xil madaniy muhitda, kommunikativ kompetentlik rivojlanish darajasi bilan uzviyligini tahlil qilish esa yangi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Afanasev V.G. Proektirovanie pedagogicheskix texnologiy // Visshee obrazovanie v Rossii. – 2001. № 4. – S. 147-150.
2. Babanskiy Yu.K. Izbrannie pedagogicheskie trudi. – M.: Pedagogika, 2008. – 500 s.
3. Baydenko V.I. Obrazovatelnyy standart, teoreticheskie i konseptualnye osnovy (opit sistemnogo issledovaniya). Avtoreferat diss. . d.p.n. – M., 2003. – 38 s.
4. Z.J Axmedova Positive aspects of the communicative psychological effect of social networks on the individual Asian Journal of Research in Social Sciences and ..., 2022.
5. A.Z.Djamilovna Study Of The Formation Of Crime Motivation In Adolescents As A Problem Of Psychological Research, I.H.Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022.